Azamat Ziyo
Saidkomil Xolxo‘jayev

Tarixdan hikoyalar

5-sinf

I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi
Ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan

TEKSHIRILGAN
PLAGIATGA QARSHI!
TEKSHIRILGAN

novda
edutainment

MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI

Toshkent – 2026

UO‘K: 94(075.3):373.3.016
KBK 63.3ya72+74.202.4
A 36

Ziyo A., Xolxo‘jayev S.
Tarixdan hikoyalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, I qism / A. Ziyo, S. Xolxo‘jayev. – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2026. – 128 bet.

Taqrizchilar:

Mirzohid Askarov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti;

Dilnoza Jamolova – FA Tarix instituti direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, tarix fanlari doktori, professor;

Surat Kubayev – FA Tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori;

Qahramon Rajabov – FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor;

Abdulla Rasulov – Namangan davlat universiteti, tarix fanlari doktori, professor;

Nargiza Safarova – G‘ijduvon ixtisoslashtirilgan maktab-internati tarix fani o‘qituvchisi;

Halim To‘rayev – Buxoro davlat universiteti, tarix fanlari doktori, professor.

Shartli belgilar



Yangi mavzu



Eslab qoling



Mashg‘ulotlar



O‘zbekning ulug‘lari



Savol va topshiriqlar



Bilib qo‘ygan yaxshi



O‘z bilimingizni tekshiring

ISBN 978-9910-295-46-1

© A. Ziyo, S. Xolxo‘jayev
© “Novda Edutainment”, 2026

MUNDARIJA

1–2-MAVZULAR

Tarix darsiga ilk qadam. Mustaqillik. Vatan. Bilim. **6**
Bitta xalq – bitta davlat 6
Mustaqillik kuni 8

3–4-MAVZULAR

O‘z o‘tmishimizni bilamizmi? **11**
Mening oilam 11
O‘tmish esdaliklari va yodgorliklari 14
Uyimiz – kichik vatanimiz 17
Inson jamoalari 20

5-MAVZU

Tarixga xaritalar orqali boqish **22**
Xaritalar qanday paydo bo‘lgan? 22
Buyuk vatandoshlarimiz kashfiyotlari 24
Xarita orqali o‘tmishga sayohat 26

6–7-MAVZULAR

Eng qadimgi odamlar **28**
Yer juda qadim zamonlarda 28
Turmushni o‘zgartirgan kashfiyotlar 29
Tabiatdan madaniyatga 32

8–9-MAVZULAR

Madaniyat **36**
O‘troq turmushning boshlanishi 36
Suv – hayot manbayi 39
Shahar madaniyati 41

10-MAVZU

Tarixda ta’lim **44**
Ustozlarga ehtirom 44
Qadimgi maktablar va universitetlar 47
Jadidlar kim bo‘lganlar? 48

11–12-MAVZULAR

Davlatchilik tarixi **50**
O‘zbek davlati, Turon va Turkiston 50
Alp Er To‘nga 53
Turon sivilizatsiyasi 53

13-MAVZU

O‘zbek tili tarixi **55**
Til – millatning so‘zi 55
O‘z bilimingizni tekshiring 58

14–16-MAVZULAR

Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari **60**
Samarqand – Yer yuzining sayqali 60
Samarqand durdonalari 64
Buxoro – bilimlar yurti 67
Buxoro durdonalari 69
Alisher Navoiy sharafiga atalgan viloyat 71
Navoiy durdonalari 72

17–18-MAVZULAR

Davlat bayrog‘i **75**
Davlat ramzlarining tarixi 75
Bayrog‘imiz baland hilpirasin! 79

19–20-MAVZULAR

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari **82**
Qashqadaryo viloyati 82
Qashqadaryo durdonalari 86
Surxondaryo viloyati 89
Surxondaryo durdonalari 91

21-MAVZU

Ushalmagan orzu: Turkiston muxtoriyati **94**
72 kunlik erkin yashash tarixi 94

22–23-MAVZULAR

Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston **98**
Quyosh o‘lkasi – Xorazm 98
Xorazm durdonalari 101
Qoraqalpog‘iston 106
Qoraqalpog‘iston durdonalari 107

24-MAVZU

Bosh qonunimiz **112**
Intizomli qo‘shin yengilmas, tartibli el tarqamas 112
O‘zbekiston Konstitutsiyasi 116

25-MAVZU

Vatan madhi **117**
Madhiyalar tarixi 117
Milliy madhiyamiz 118

26–27-MAVZULAR

Yil, oy va kunlarni sanash **120**
Vaqtni hisoblash tarixi 120
Tarixning boshi qayerda va u qanday aniqlanadi? 124
O‘z bilimingizni tekshiring 126

Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz.

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti





1–2-MAVZULAR

TARIX DARSIGA ILK QADAM. MUSTAQILLIK. VATAN. BILIM



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- tarix fani nima uchun kerakligini va u bizga nimalarni o‘rgatishini tushunib olasiz;
- tarixiy ma’lumotlar, tarixiy dalillar, tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar haqida ma’lumotga ega bo‘lasiz;
- Mustaqillik bayramining xalqimiz hayotidagi ahamiyatini anglab yetasiz.

Bitta xalq – bitta davlat



1.1-rasm. *Toshkent shahri “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi Mustaqillik yodgorligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning g‘oyasi va tashabbusiga ko‘ra yaratilgan.*

Tarix fani nima uchun kerak?

Aziz o‘quvchilar! Bugun siz tarix fanidan ilk darsni boshladingiz.
Xo‘sh, tarix fani bizga nima uchun kerak?
Tarix fani bizning xalq sifatida kelib chiqishimiz, davlatchiligimiz, an’ana va qadriyatlarimiz, axloq-odobimiz qachon paydo bo‘lgani va o‘zligimiz qanday toblanganini ko‘rsatib beruvchi yo‘lchi yulduzdir. Tarixiy bilimlarimiz xuddi yulduz kabi butun umr bizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib turadi.

Tarix fanidan nimalarni bilib olamiz?

Tarix fanidan biz o‘tmishimiz qanchalar qadim, boy va buyuk bo‘lganini, ajdodlarimiz yaratgan shaharlar, qilgan kashfiyotlari, tuzgan saltanatlari va avlodlarga qoldirgan o‘lmas va tengsiz merosni, shuningdek, 3000 yildirki **bitta xalq – bitta davlat** ekanimizni bilib olamiz.



Eslab qoling

Tarix – vaqt, yil, oy, kun, davr va o‘tmish ma’nolarini anglatuvchi, asli arabcha so‘z.

Tarixiy ma’lumotlar – o‘tmishga oid har qanday guvohliklar. Ular haqqoniy, taxminiy, to‘qima yoki hatto yolg‘on bo‘lishi ham mumkin.

Tarixiy dalillar – ishonchli manbalar asosida o‘z isbotini topgan voqea yoki hodisalar.

Tarixiy voqea – o‘tmishda yuz bergan aniq voqea yoki hodisa.

Tarixiy shaxslar – o‘tmishda o‘z qarash, bilim va mahorati bilan buyuk o‘zgarishlar, kashfiyotlar qilgan, botirligi bilan tanilgan kishilar.

Tarixiy ma’lumotlar			
haqqoniy	**taxminiy**	**to‘qima**	**yolg‘on**
Amir Temur – buyuk saltanat asoschisi	Amir Temur saltanatida 20 millioncha aholi yashagan	Amir Temur barpo etgan Taxtaqoracha bog‘i shunday katta bo‘lganki, unda yo‘qolib qolgan ot olti oydan so‘ng topilgan	Amir Temurning butun umri urushlarda o‘tgan

Tarixiy dalillar		Tarixiy voqealar	
Muhammad Xorazmiy – o‘nlik sanoq tizimi asoschisi	Alisher Navoiy – o‘zbek tilida besh dostondan iborat “Xamsa”ni yaratgan buyuk shoir	Shahrisabzdagi Oqsaroy qurilishi 1380-yili boshlangan	Islom sivilizatsiyasi markazi binosi 2018–2026-yillar-da qurilgan

Tarixiy shaxslar			
Amir Temur	Muhammad Xorazmiy	Ibn Sino	Mahmudxo‘ja Behbudiy

Mustaqillik kuni

Nima uchun Mustaqillik kunini nishonlaymiz?

1991-yil 1-sentabr – xalqimiz o‘zining **3000 yillik** milliy davlatchiligini qayta tiklagan va mustaqil rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ygan buyuk sana. Shu bois bu kun barchamiz uchun ulug‘ bayram sifatida qadrlanadi.

Mustaqillik nima va nima uchun bizga shunchalar aziz?

Har bir insonning o‘z uyi, mahallasi, qishlog‘i, shahri, viloyati, yurti bo‘ladi. Bularning barchasini bir so‘z bilan **Vatan** deymiz.

Har bir inson va har bir xalq erkin yashashni istaydi. Buning uchun u mustaqil bo‘lishi, ya’ni boshqa davlatlar va xalqlarga qaram bo‘lmasligi kerak.

Mustaqillik har bir inson va xalqning erkin yashashi hamda Vatanini asrashi uchun zarur.

O‘zbekning ulug‘lari



Abu Rayhon Beruniy (973–1048)

Abu Rayhon Beruniy 973-yili Xorazmning Kot (hozirgi Beruniy) shahrida tug‘ilgan.

1030-yili Atlantika ortida quruqlik, ya’ni Amerika qit’asi borligini bashorat qilgan. 1048-yili G‘azna (hozirgi Afg‘oniston hududi) shahrida vafot etgan. Qabri ham o‘sha yerda.



1.2-rasm. *Mustaqillik bayrami tantanalari.*

Mustaqilligimizni asrash uchun nima qilishimiz kerak?

Mustaqilligimizni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Buning uchun bizdan vatanparvarlik, elga sadoqat va pishiq bilim talab etiladi. Vatanni sevish uning o‘tmishini bilishdan boshlanadi. Ana shunday bilimlarni egallashimizga esa tarix fani yordam beradi.

Demak, tarix fani bizga Vatanimizni sevish va erkimizni asrab-avaylashni ham o‘rgatar ekan.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Baland hilpirab turgan **bayroq,** rasmiy binolar va hujjatlarga tushirilgan, chegaralarga o‘rnatilgan **gerb** shu yurtning egasi kimligini bildirib turadi. Davlat **madhiya**si esa shu yurt va uning xalqi haqida tarannum etilgan milliy qo‘shiq sanaladi. O‘zbekistonning har bir fuqarosi davlat madhiyasini bilishi shart. Davlat madhiyasi ijro etilganda barcha tik turgan holda o‘ng qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib tinglashi kerak.

Eslab qoling

Sohibqiron – buyuk bobomiz Amir Temurga berilgan yuksak unvon.

Mashg‘ulotlar

Berilgan matnlarni o‘qing va ularning ichidagi tarixiy shaxslar, dalillar hamda voqealarni ajratib, jadvalning mos ustunlariga yozing.

1. Muhammad Xorazmiy – o‘zbek xalqining buyuk farzandi.
2. Sohibqiron Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi qishloqda tug‘ilgan.
3. 1370–1501-yillar mobaynida temuriylar sulolasi davlatimizni boshqargan.
4. 1-sentabr – Mustaqillik kuni.
5. Yangi O‘zbekistonning tarixiy bosqichi 2016-yil 8-sentabrda boshlangan.
6. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda tug‘ilgan.
7. Birinchi Uyg‘onish bosqichi 9–13-yuzyillik boshlarida kechgan.

Tarixiy shaxslar	Tarixiy dalillar	Tarixiy voqealar

Savol va topshiriqlar

1. Bu darsda qaysi buyuk insonlar va qiziqarli voqealar bilan tanishdingiz?
2. Nima uchun tarixni o‘rganish bizga juda muhim? U bizga nimalarni o‘rgatadi?
3. El-yurtga sadoqat haqida qanday maqollarni bilasiz?

3–4-MAVZULAR

O‘Z O‘TMISHIMIZNI BILAMIZMI?



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- tarixiy manbalar va yodgorliklarning turlarini bilasiz;
- o‘z oilangiz tarixini aks ettiruvchi shajarani mustaqil tuza olasiz;
- qadimgi odamlar qanday boshpanalarda yashaganini bilib olasiz;
- odamlarning turar joylari vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarib borganini tasvirlab bera olasiz;
- odamlarning birgalikda, ya’ni jamoa bo‘lib yashashining afzalliklarini tushunasiz;
- katta va kichik insoniy jamoalarni bir-biridan farqlashni o‘rganasiz.

Mening oilam

Vatan oiladan boshlanadi

O‘zbekiston xalqi millionlab oilalarning yagona birlashmasidir.

Oilasi tarixini izlagan va o‘rgangan bola Vatani o‘tmishini ham anglay boshlaydi. Tarixchi kabi fikrlash uchun har birimiz o‘z oilamiz a’zolarini va ularning turmushini yaxshi bilishimiz kerak:



Bobo-buvilarimiz



Ota-onalarimiz



Aka-ukalar va opa-singillarimiz

Oila haqida nimalarni bilishimiz kerak?

Har bir tarixchi biror shaxsning turmushini o‘rganishdan oldin uning tarjimayi holiga nazar soladi. Biz ham oilamiz tarixini o‘rganuvchi kichik tadqiqotchi sifatida yaqinlarimiz haqidagi birlamchi ma’lumotlarni to‘plashimiz kerak.

Bularga quyidagilar kiradi:

- familiyasi, ismi va otasining ismi;
- tug‘ilgan yili, oyi, kuni;
- tug‘ilgan yeri;
- kasbi, ish yoki o‘qish joyi.



3.1-rasm. *Shaxs guvohnomasi namunasi.*

Mashg‘ulotlar

Yuqorida keltirilgan shaxs guvohnomasi namunasiga diqqat bilan qarang. Tarixchi sifatida ushbu manbadan shaxs haqidagi birlamchi ma’lumotlarni aniqlang.

O‘zbekning ulug‘lari



Abdulla Avloniy (1878–1934)

Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrida tug‘ilgan.


U jadidchilik milliy harakatining yirik va yorqin vakilidir. ***“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”*** shiorini o‘rtaga tashlagan buyuk ma’rifatparvardir. U ilg‘or maktablar ochgan, darsliklar yaratgan, darslar orasida tanaffus bo‘lishini, sinfdan sinfga o‘tishdagi sinovlarni joriy etgan.

1934-yili olamdan o‘tgan. Qabri Toshkent shahridagi Chig‘atoy qabristonida.

Mening shajaram

Biror kishi yoki oila haqida yaxshiroq bilish uchun ularning tag-tomiri, nasl-nasabini surishtirish kerak, degan so‘zlarni eshitganmisiz? Ajdodlarimizdan qolgan ushbu odatdan qanday maqsad ko‘zlangan deb o‘ylaysiz?

Butun bir xalqning o‘tmishi bo‘lganidek, har qanday inson, oilaning ham o‘z tarixi – kelib chiqishi, tag-tomiri bo‘ladi. Bu xuddi daraxt singaridir. Uning yer ostiga chuqur ketgan ildizlari kabi har bir insonning ham uzoq o‘tmishda o‘tgan ajdodlari, ya’ni tomirlari bo‘ladi. Daraxt tanasidan yangi butoqlar va yaproqlar o‘sib chiqqani kabi oilamiz ham vaqt o‘tishi bilan o‘g‘il-qizlar, nevara, chevara, evaralar hisobiga o‘zidan ko‘payib boradi. Tarix ilmida bunday nasab daraxti **shajara** yoki **nasabnoma** deb ataladi.



Amir Temur va temuriylar shajarasi

Buyuk bobomiz ***Sohibqiron Amir Temur***ning to‘rt o‘g‘li va ikki qizidan tarqagan avlodlarining shajarasi haqida eshitganmisiz?

Keyingi betda keltirilgan suratni sinchiklab o‘rganing va temuriylar oilasining ayrim vakillari haqida ilk tasavvurga ega bo‘ling.

O‘tmish esdaliklari va yodgorliklari

Tarixiy manbalar nima?

Biror oilaga tegishli bo‘lgan, uzoq yillar mobaynida yuz bergan turli voqealar bayoni, kundalik turmushida ishlatgan buyum va jihozlari **oilaviy esdaliklar** deyiladi.

Sizning oilangizda ham ana shunday bitiklar, bayonlar, buyum va jihozlar bormi? Ularning siz uchun qadri nimada?

Ular orqali siz ota-onangiz, bobo-buvilaringizning kasblari, erishgan yutuqlari, foydalangan buyumlari, ardoqlagan narsalari, kiygan kiyim-kechaklari haqida tasavvurga ega bo‘lasiz.



Buvamning qo‘l soati



Buvimning tikuv dastgohi



Otamning maktabda olgan maqtov yorlig‘i



Onamning musobaqada olgan oltin medali


O‘zbekning ulug‘lari



Muhammad Xorazmiy (783–850)

Muhammad Xorazmiy 783-yili Xorazmda tug‘ilgan. Matematika ilmi va kundalik turmushimizda tengsiz ahamiyatga ega bo‘lgan sonlar – 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 ni, ya’ni o‘nlik sanoq tizimini kashf etgan.

850-yili Bag‘dod shahrida (Iroq) vafot etgan. Qabri qayerdaligi ma’lum emas.



3.2-rasm. *Amir Temur va uning ayrim avlodlari aks etgan nasabnoma.*

Tarixiy-madaniy yodgorliklar

Esdaliklar butun el-yurtga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Ming yillar mobaynida ajdodlarimiz yaratib kelgan bunday tengsiz boylikni **tarixiy-madaniy yodgorliklar** deb ataymiz. Negaki ular bizga o‘tmishdan yodgorlik bo‘lib qolgan. Tarixiy-madaniy yodgorliklarning turi ko‘p. Ularning ayrimlari bilan tanishamiz.



Arxeologiya yodgorliklari – arxeologlar tomonidan qazishmalar paytida topilgan qadimgi shaharlar, qo‘rg‘onlar, turli imoratlar qoldiqlari hamda ashyolar.



Tarixiy imoratlar – o‘tmishda qurilgan saroylar, madrasalar, masjidlar, minoralar, ko‘priklar, bozorlar, maydonlar va boshqa maqsadda yaratilgan binolar.



Madaniy boyliklar – odamlar uyida, muzeylar va to‘plamlarda saqlanayotgan ro‘zg‘or, kasb, san’atga oid ashyolar, buyumlar, masalan, metall, sopol idishlar, qurol-aslahalar, taqinchoqlar, suratlar, kitoblar va boshqalar.



Diqqatga sazovor yerlar – ko‘pchilik e’tiborini tortadigan, o‘ta mashhur bo‘lib ketgan, barcha ko‘rishga intiladigan joylar.

Mashg‘ulotlar

Berilgan suratlardagi tasvirlarni oilaviy esdaliklar va tarixiy-madaniy yodgorliklar turlariga ajrating.







Eslab qoling

Arxeolog – o‘tmishni inshootlar, ish, ov va urush qurollari, taqinchoqlar, odamlar, hayvonlar suyaklari, o‘simliklar qoldiqlari va urug‘lari orqali o‘rganuvchi mutaxassis.

Tarixiy-madaniy yodgorliklar – arxeologiya yodgorliklari, tarixiy imoratlar, madaniy boyliklar va diqqatga sazovor yerlar.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrab-avaylash O‘zbekistonning har bir fuqarosi, jumladan, sizning ham muqaddas burchingizdir. Negaki ular bizning bir necha ming yillik shonli tariximizning dalillari, ajdodlarimiz yaratgan, bizning kimligimiz haqida so‘zlaydigan tengsiz ma’naviy boylikdir. Ularni asrash orqali biz tarixiy xotira – o‘zligimizni saqlagan bo‘lamiz.

Savol va topshiriqlar

1. Uyimizdagi eski esdaliklar va buyumlar bizga o‘tmish haqida nimalarni bilishga yordam beradi?
2. Oila shajarasi nima va u nimaga o‘xshatiladi?
3. Ota-onangizdan yordam olib, o‘z oilangiz shajarasini tuzishga urinib ko‘ring.
4. Tarixiy-madaniy yodgorliklar deganda nimalarni tushunasiz?
5. Nima sababdan tarixiy-madaniy yodgorliklarni asrab-avaylashimiz kerak?

Uyimiz – kichik vatanimiz

Jamoa bo‘lib yashashning boshlanishi

Kun maqoli:
Birlashgan o‘zar,
Birlashmagan to‘zar.

Ushbu maqol qachon paydo bo‘lganini aniq aytish qiyin, biroq u ajdodlarimiz so‘zlagan ilk o‘gitlardan biri ekani shubhasiz. Negaki odamlar eng qadimgi zamonlardayoq birgalashib yashashga harakat qilganlar. Jamoa bo‘lib yashash shunday boshlangan.

Tarixiy sabab va oqibatlar

Yakka holda tabiat hodisalari va yirtqich hayvonlar qarshisida omon qolish deyarli imkonsiz edi. Aynan mana shu hayotiy zaruriyat tufayli insonlar birlashishga va jamoa bo‘lib yashashga majbur bo‘lganlar.



Mashg‘ulotlar

Ushbu maqollarni tugallang.

1. Bo‘linganni bo‘ri ... .
2. Yo‘ldan chiqsang chiq, eldan ... .
3. Bulbul chamanni sevar, odam – ... .
4. Ona yerning tuprog‘i – ona sutidan ... .
5. Ona yurting – oltin ... .









G‘orlardan shinam uylargacha

Insonlarning uy-joy qurish mahorati ming yillar davomida yuksalib borgan. Bu kechmish bir necha muhim bosqichlardan iborat bo‘lgan.

1. Tabiiy boshpanalar. Dastlab odamlar tayyor boshpanalar – ungurlar (g‘orlar) va tog‘ bag‘ridagi yoriqlardan foydalanganlar. Chunki ular doimiy oziq-ovqat izlab, bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chib yurganlar.

Eslab qoling

Ungur – tog‘larning yonbag‘ridagi tik o‘yiq yer; uncha chuqur bo‘lmagan g‘or.

Guvala – loydan qo‘lda yasalib, quyoshda quritilgan, tagi yassi cho‘zinchoq qurilish ashyosi.

Tegra – tevarak, atrof.

Paxsa – pishitilgan loydan ustma-ust bosib qurilgan devor.

2. Ilk qurilmalar. Vaqt o‘tishi bilan odamlar daraxt shoxlari, hayvon suyaklari va terilaridan chaylalar hamda yerto‘lalar qura boshlaganlar. Bu insonning tabiat injiqliklariga ko‘nikishdagi ilk yutug‘i bo‘lgan.

3. O‘troq turmush. Insonlar ekin-tikinchilik va chorvachilik bilan shug‘ullana boshlagach, bir yerda uzoq muddat yashash ehtiyoji tug‘ilgan. Natijada paxsa, guvala va toshdan mustahkam uylar qurilgan.



3.3-rasm. *Samarqanddan topilgan, taxminan 16000—33000 yil burun ovchi va terimchi jamoalariga tegishli bo‘lgan boshpananing tiklangan ko‘rinishi.*


Tarixiy sabab va oqibatlar

Insonlar o‘zlariga turar joylar qurishni o‘rgangach, tabiiy boshpanalarga bo‘lgan qaramlikdan qutulganlar. Natijada ular o‘zlari istagan qulay yerlarga o‘rnashib, tinch yashash imkoniga ega bo‘lganlar.



Oldiniga qadimgi uylar faqat bir xonadan iborat bo‘lgan. Yillar o‘tishi bilan ularda yotoqxona, o‘choqxona va mehmonxonalar paydo bo‘lgan. Har bir oila uchun alohida hovli-joy qurish odati shakllangach, bir nechta ko‘cha va uylardan iborat yirik hududlar vujudga kelgan. Keyinchalik bunday hududlar **mahalla** deb atala boshlagan. **Mahallada ahil, totuv va yelkadosh bo‘lib yashash o‘zbek xalqining eng oliyjanob qadriyatlaridan biriga aylangan.**

O‘zbekning ulug‘lari



Abdulhamid Cho‘lpon (1897–1938)

U 1897-yili Andijon shahrida tug‘ilgan.

Uning “Kecha va kunduz” romani milliy va jahon adabiyotining durdonasi sanaladi. Cho‘lpon Jadidchilik milliy harakatining yorqin vakili, Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan va o‘zini qurbon qilgan ma’rifatchi ulug‘ bobomizdir.

U 1938-yili sovet hokimiyati tomonidan otib tashlangan. Qabri qayerdaligi ma’lum emas.

Tarixiy o‘zgarish va davomiylik

Davrlar o‘tishi bilan odamlarning turar joylari tabiiy g‘orlardan mustahkam imoratlarga aylangan. Ularni bunyod etishda ishlatiladigan qurilish ashyolari va yo‘sinlarida katta o‘zgarishlar yuz bergan. Biroq barcha davrlarda ham uylar insonlarni xavf-xatarlardan himoya qilish va ularning ahil jamoa bo‘lib yashashlariga xizmat qiladigan maskan bo‘lib kelgan.



Inson jamoalari

Har bir insonning tug‘ilganidan boshlab, butun turmushi davomida ehtiyojlari tobora ortib boraveradi. Yeyish uchun oziq-ovqat, kiyish uchun kiyim, yashash uchun shinam uy, bilim olish uchun kitoblar va ustozlar kerak. Biroq hech bir inson hamma ishni – ham ekin ekishni, ham kiyim tikishni, ham uy qurishni bir o‘zi eplay olmaydi.

Odamlar barcha ehtiyojlarini o‘zaro birlashish orqali qondirib kelganlar.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Buyuk bobomiz ***Abu Nasr Forobiy*** yuksak fazilatlarga ega bo‘lgan odamlardan iborat jamiyatni ***“Fozil jamiyat”*** deb atagan. U go‘zal xulqqa va chuqur bilimga ega, o‘z o‘tmishini yaxshi o‘rgangan, ishchan, boshqalarga yordam qo‘lini cho‘zadigan, mehr-oqibatli, yurtsevar va halol kishilargina bunday darajaga erishishlari mumkinligini uqtirgan.



Kishilarning maqsadli birlashuvi **jamoa** deb ataladi. Jamoalar o‘z ko‘lamiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- **Kichik jamoa:** oila – jamiyatning eng asosiy va tayanch bo‘g‘ini. Shuningdek, biz yashaydigan mahalla va qishloqlar ham kichik jamoani tashkil etadi.
- **Yirik jamoa:** jamiyat – aniq bir yurtda yashovchi, mafkurasi, tili, madaniyati va tarixiy xotirasi bir bo‘lgan xalq yoki millat (masalan, o‘zbek xalqi).
- **Umuminsoniy jamoa:** kishilik (insoniyat) – butun Yer yuzidagi barcha odamlar, xalqlar.



Eslab qoling

El – davlat, xalq, urug‘lar uyushmasi.

Yurt – vatan, mamlakat, uy, yashash yeri.



Mashg‘ulotlar

Sinfdoshlaringiz bilan dehqonlar, hunarmandlar, olimlar va boshqaruvchilardan tashkil topgan 4 ta guruhga bo‘lining. Har bir guruh jamiyatdagi o‘z vazifasini va boshqalarga qanday foyda keltirishini tushuntirib berishi lozim.



Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi odamlar nima sababdan doim birlashib yashashga majbur bo‘lganlar?
2. Ilk odamlar yovvoyi hayvonlar va tabiat xavflaridan saqlanish uchun qanday boshpanalardan foydalanganlar?
3. Odamzodning yashash yerlari qadimgi g‘orlardan boshlab bugungi shinam uylargacha qanday tartibda o‘zgarib borgan?
4. Kichik bir jamoa bo‘lgan oilamiz bilan katta jamoa sanalmish xalqimiz o‘rtasida qanday o‘xshashlik va farqlar bor?
5. Buyuk bobomiz Abu Nasr Forobiy orzu qilgan “Fozil jamiyat” a’zolari qanday fazilatlarga ega bo‘lishlari kerak?

5-MAVZU

TARIXGA XARITALAR ORQALI BOQISH



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- odamlar nima uchun xaritalar chizishlarini tushunasiz;
- eng birinchi xaritalar qanday ko‘rinishda bo‘lganini bilasiz;
- yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk xaritachi olimlar bilan tanishasiz;
- tarixiy va zamonaviy xaritalarni o‘zaro farqlashni o‘rganasiz;
- tarixiy xaritalar o‘tmishni o‘rganishda bizga qanday yordam berishini tushuntira olasiz.

Xaritalar qanday paydo bo‘lgan?

Tasavvur qiling, siz mutlaqo notanish, bepoyon yerdasiz. Oddiy yo‘llar ham, hatto yo‘l ko‘rsatkichlari ham yo‘q. **Adashib qolmaslik uchun sizga nima yordam beradi? Albatta, xarita!**

Mo‘ljal olish

Eng qadimgi chog‘larda insonda paydo bo‘lgan va bugun ham saqlanib qolgan ko‘nikmalardan biri nimaligini bilasizmi?

Bu biror yerga bormoqchi bo‘lganda, uning mo‘ljalini olishdir.

Odamlar o‘zlari yashab turgan tegra, ov qiladigan uzoq hududlar, begona yerlarga otlanganlarida, qaytish yo‘llarini belgilashga ehtiyoj sezganlar. Oldiniga atrof-muhitda bor imkoniyatlardan foydalanganlar. Masalan, Quyosh, Oy, yulduzlar, tog‘lar, soylar va shunga o‘xshash esda qoluvchi narsalarga qarab ish tutganlar. Yo‘llarga belgilar qo‘yganlar.

Keyinchalik belgilarni tosh, hayvon suyaklari, daraxt po‘stlog‘i, teriga tushirishni o‘rganganlar.



Kun maqoli

Yo‘l yursang, sinab yur, sinab yurmasang, o‘lchab yur.

Ilk xaritalar qanday bo‘lgan?

Bugungi kunda ma’lum bo‘lgan eng qadimgi xarita namunasi Chexiyaning Pavlov qishlog‘idan topilgan. **27 000 yil burun** mamontning o‘siq tishiga o‘yib chizilgan ushbu xaritada soylar, tog‘lar, vodiylar, yo‘llar o‘z aksini topgan.



5.1-rasm. *Mamontning o‘siq tishiga o‘yib chizilgan xarita.*

Eslab qoling

“Xarita” arabcha so‘z bo‘lib, geografiya, tarix, sayohat, turli imoratlar, diqqatga sazovor yerlar, mahallalar, yo‘llar, ko‘chalarning joylashuviga oid birlamchi ma’lumotlarni o‘zida aks ettiradi.

Nima uchun xaritalar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan?


Xarita tuzish ishining sayqallanishida savdo-sotiqning o‘rni ulkan bo‘lgan. Negaki savdogarlar shaharlar, qishloqlar, manzillar, shuningdek, oltin, kumush, temir, tuz, novshadil kabi ma’danlar qazib olingan konlarga olib boradigan yo‘llar, hayot-mamot masalasi bo‘lgan suv quduqlari bor yerlarni aniq bilishlari o‘ta muhim edi. Bundan tashqari, ular eng qisqa va xavfsiz yo‘llarni raqobatchilardan sir tutib, faqat o‘zlari uchun chizmalar tayyorlaganlar. Sayyohlar va turli muqaddas joylarga boruvchi ziyoratchilar uchun ham xaritalar o‘ta zarur bo‘lgan. Shuningdek, harbiy yurishlar uyushtirish uchun bosib o‘tilajak yo‘llar, turli tabiiy to‘siqlar – daryolar, tog‘lar, cho‘llar haqida ham aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish talab etilgan. Mana shunday ehtiyojlar sababli **geografiya** hamda **xaritachilik** fanlariga asos solingan.

Mashg‘ulotlar

Uyingizdan maktabgacha bo‘lgan masofaning kichik chizmasini (xaritasini) chizing. Yo‘lingizda uchraydigan asosiy nuqtalar (chorraha, do‘kon, maktab yaqinidagi bog‘ yoki yirik daraxtlar)ni alohida belgilar bilan ko‘rsating. Nima uchun aynan shu nuqtalarni xaritangizga kiritdingiz? Ular qanday ahamiyatga ega?

Bilib qo‘ygan yaxshi

Farg‘ona vodiysining sharqida (hozirgi Qirg‘iziston Respublikasi Jalolobod viloyati), Soymalitosh qoyatoshlaridagi 4000–5000 yillik suratlardan birida uy yoki qishloq rejalarini eslatuvchi chizma bor.




Buyuk vatandoshlarimiz kashfiyotlari

Qo‘lingizda na telefon, na internet va na tayyor xaritalar bo‘lmasa, atrofingizda qanday shaharlar, tog‘lar va daryolar borligini qayerdan bilgan bo‘lardingiz? Bu imkonsizdek tuyuladi, shunday emasmi? Ammo bizning buyuk ajdodlarimiz o‘tmishda buni uddalab kelganlar.

9-yuzyillikda, ya’ni bundan taxminan **1200 yil avval** yashab ijod etgan buyuk bobomiz ***Muhammad Xorazmiy*** jahon ilm-fanida algebra fanining asoschisi ekanidan tashqari yetuk geograf olim o‘laroq ham tanilgan.


U o‘z davrida Yer yuzining mukammal chizmasini yaratish maqsadida ***“Yerning surati”*** asarini yozgan. Bu asarda olim dunyodagi **2402 ta** shahar, shuningdek, daryo, dengiz va tog‘larning joylashuvini aniqlagan hamda ularning ilk xaritalarini yaratgan.



5.2-rasm. *Muhammad Xorazmiyning “Yerning surati” asari qo‘lyozmasi beti. Unda Nil daryosi havzasining xaritasi ko‘rsatilgan. Olim daryoning qayerdan boshlanib, qayerga quyilishini chiziqlar va maxsus sonlar orqali juda aniq tasvirlagan.*



5.3-rasm. *Abu Rayhon Beruniy tasvirlagan dunyo xaritasi.*



5.4-rasm. *Mahmud Koshg‘ariy tasvirlagan dunyo xaritasi.*

Sizningcha, Yerning kattaligini bilish uchun uni aylanib chiqish shartmi? Buyuk yurtdoshimiz ***Abu Rayhon Beruniy*** uchun bunga zarurat bo‘lmagan.

Ulug‘ bobomiz taxminan **1000 yil burun,** hech qanday sun’iy yo‘ldoshlar va kompyuterlarsiz, faqat o‘zining o‘tkir zehni, ilmiy kuzatishlar hamda matematik ifodalar yordamida Yer shari radiusini katta aniqlik bilan hisoblab chiqqan. Uning hisob-kitobiga ko‘ra, Yer shari radiusi 6490 kilometr bo‘lgan. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida aniqlangan Yerning o‘rtacha radiusi 6371 kilometrni tashkil etadi. Demak, bobomiz atigi 119 kilometrga adashgan, xolos. Bu o‘sha davr jahon ilm-fani uchun ulkan yutuq edi.

Olim o‘z hisob-kitoblariga tayanib, xaritalarda tasvirlangan hududdan tashqarida, okean ortida yana bir noma’lum ulkan quruqlik borligini ham birinchi bo‘lib taxmin qilgan. **Ushbu quruqlik bugun Amerika qit’asi deyiladi.**

11-yuzyillikda yashab ijod etgan yana bir buyuk olimimiz ***Mahmud Koshg‘ariy*** tilshunoslik bilan bir qatorda dunyoning ilk rangli xaritalaridan birini chizgan.

U ushbu noyob xaritani o‘zining mashhur ***“Turkiy so‘zlar lug‘ati”*** asariga kiritgan.

Ushbu xaritaning boshqa xaritalardan eng asosiy farqi va afzalligi shundaki, Mahmud Koshg‘ariy dunyoning markaziga turkiy xalqlar, ya’ni bizning buyuk ajdodlarimiz yashagan Turon hududini joylashtirgan. Xaritada ranglar shartli belgilar sifatida juda unumli qo‘llangan: dengiz va daryolar ko‘k, tog‘lar qizil, cho‘llar esa sariq rangda tasvirlangan. Bu nodir manba orqali biz o‘sha uzoq davrlarda turli xalqlar Yer yuzining qaysi hududlarida yashaganlari va qanday atalganlarini bilib olamiz.

Xarita orqali o‘tmishga sayohat

Xarita – o‘tmishning jonli lavhasi

Xaritalar ikki xil bo‘ladi: **zamonaviy** va **tarixiy.**

Zamonaviy xarita bizga bugungi dunyoni ko‘rsatsa, tarixiy xarita bizni uzoq o‘tmishga – bobo-buvilarimiz yashagan davrlarga sayohat qilishimizga ko‘maklashadi.

Tarixiy xaritaga qarab, biz ming, yuz yillar burun ro‘y bergan muhim voqealar, davlatlarning chegaralari, mashhur shaharlar, savdo yo‘llari, harbiy yurishlar, atoqli shaxslar turmushi haqida bilib olamiz.

Amir Temurning ulkan saltanati

Tarixiy xarita sirlarini tushunish uchun buyuk bobomiz ***Amir Temur*** qurgan saltanatning xaritasiga diqqat bilan ko‘z tashlang. Xaritalarda ranglar va chiziqlar o‘ziga xos ma’lumotlarni ifodalaydi.

Ko‘rib turganingizdek, Amir Temur davrida davlatimiz hududi O‘rta Yer dengizidan Xitoy chegarasigacha, Moskvadan Dehligacha yetib borgan edi.

5.5-rasm. *Amir Temur saltanati xaritasi.*



Eng muhimi, ushbu ulkan kenglikda tinchlik-osoyishtalik hukm surgan, ekin-tikinchilik, bog‘dorchilik, savdo-sotiq rivojlangan, shaharlar va bog‘lar qurilgan, madrasalar, maktablar, kasalxonalar, masjidlar, karvonsaroylar, bozorlar, ko‘priklar, hammomlar barpo etilgan.

Mashg‘ulotlar

Bugungi jahon xaritasini qo‘lingizga olib, Amir Temur saltanati hududi xaritasi bilan solishtiring va u hozirgi qaysi davlatlarni qamrab olganini aniqlang.

Vatanimizning bugungi qiyofasi

Tarixiy o‘zgarish va davomiylik

Vaqt o‘tishi bilan dunyo xaritalari o‘zgarib borgan. Boisi turli sabablar tufayli davlatlar hududida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Agar siz davlatimizning Amir Temur davridagi va hozirgi kun xaritalariga e’tibor bersangiz, har ikkovida ham bitta tarixiy o‘zakka ko‘zingiz tushadi. Buyuk shaharlarimiz, go‘zal vodiy va vohalarimizni qamrab olgan ushbu o‘zakda bugun Vatanimiz – O‘zbekiston Respublikasi qad rostlab turibdi.



Demak, O‘zbekiston hozirgi kunda ***Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, Qashqadaryo*** singari **12 ta** viloyat, ***Qoraqalpog‘iston Respublikasi*** va ***Toshkent shahri***dan iborat.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun qadimgi odamlar yo‘l va manzillarni biror narsaga chizib qo‘yishga ehtiyoj sezganlar?
2. Ilk xaritalar qanday paydo bo‘lgan va insonlar ularni nimalarda aks ettirganlar?
3. Tarixiy xaritalarni o‘rganish orqali ajdodlarimiz turmushlari haqida qanday qiziqarli ma’lumotlarni bilib olishimiz mumkin?
4. Muhammad Xorazmiy, Mahmud Koshg‘ariy va Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk olimlar xarita yaratishda qanday yangiliklar qilganlar?
5. Amir Temur saltanati xaritasi bilan bugungi zamonaviy O‘zbekiston xaritasi o‘rtasida qanday o‘xshashlik va farqlarni ko‘rishimiz mumkin?

6–7-MAVZULAR

ENG QADIMGI ODAMLAR



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- yurtimizdagi qadimgi odamlar yashagan yerlarni va ularning atalishlarini aytib bera olasiz;
- olimlar uzoq o‘tmishni qanday davrlarga bo‘lib o‘rganishlarini tushunib olasiz;
- insonlar turmushini butunlay o‘zgartirgan eng birinchi kashfiyotlar bilan tanishasiz.

Yer juda qadim zamonlarda

Bilib qo‘ygan yaxshi

Barcha odamlar, xalqlar uchun aziz sanalmish Yer chamasi to‘rt yarim milliard yil burun paydo bo‘lgan. Bu juda uzoq muddat sanaladi. O‘sha davrda Yerda turmush yo‘q edi. Vaqt o‘tib, unda jonli tabiat – yashash uchun sharoit paydo bo‘ldi, suv o‘tlari (1 milliard 200 million yil oldin), quruqlikdagi o‘simliklar (450 million yil ilgari) va hayvonlar (600 million yil burun) tarqala boshladi. Olimlar Afrikaning sharqiy qismi – hozirgi Tanzaniya o‘lkasida bundan 1,5–2,4 million yil ilgari ***“Uquvli odam” (Homo habilis)*** yashaganini aniqlaganlar.

Turon – qadimgi odamlar yurti

Farg‘ona vodiysidagi ***Selungur g‘orida*** kamida bir million yil oldin yashagan ***“tik yurar odam”***ga oid suyaklar topilgan. Turonda inson yashab o‘tgan eng keksa manzillar yana bor. Amudaryoning yuqori oqimidagi ***Ko‘lbuloq,*** Toshkent viloyatidagi ***Obirahmat,*** Samarqand viloyatidagi ***Omon qo‘ton*** qo‘nalg‘alari, Surxondaryo viloyatidagi ***Teshiktosh*** ungurida aniqlangan topilmalar 800 000 – 40 000 yil oldingi davrga tegishlidir.

Eslab qoling

Turon – qadimgi davrdan 1924-yilgacha Markaziy Osiyoning nomlanishi. Ajdodlarimiz Turon atamasi bilan bir qatorda xuddi shu ma’noni bildiruvchi **Turkiston** atamasini ham birdek qo‘llab kelganlar.

Ish va urush qurollari

Turli xalqlar singari o‘zbek xalqi ham barcha tarixiy davrlarni bosib o‘tgan. Ushbu davrlarning nomlari ham ish va urush qurollarini yasashda qo‘llangan ashyolar bilan bog‘liq.

Kun maqoli

Ish quroling soz bo‘lsa,
Mashaqqating oz bo‘lar.

Demak, odamlarning ilk quroli tosh bo‘lgan va asosan toshdan yasalgan. Ular oldiniga o‘tkir tosh sinig‘idan yog‘och, suyakka ishlov berish, ovlangan hayvon terisini shilishda foydalangan bo‘lsalar, keyinchalik o‘zlari toshlarni sindirib, uning bo‘laklaridan o‘tkir qurollar yasashga o‘tganlar. Inson **juzin**ni (bronza) kashf etgach esa, ish va urush qurollarini ushbu ashyodan tayyorlashga o‘tgan. Qadimgi ajdodlarimiz keyinchalik temirni ixtiro qilganlar va undan foydalana boshlaganlar.

Olimlar ish va ov qurollari ashyolarining o‘zgarib borishiga qarab quyidagi uchta tarixiy chog‘ (bosqich)ni belgilaganlar:

Davrlarning nomi	Davrlarning vaqt oralig‘i	Asosiy ashyosi
Tosh davri	2,6 milliondan 6000 yil oldingacha	Tosh
Juzin (bronza) davri	5000 yildan 3000 yil oldingacha	Juzin (bronza)
Temir davri	Taxminan 3000 yil oldin boshlangan	Temir

Turmushni o‘zgartirgan kashfiyotlar

Taraqqiyotning ilk burilish nuqtalari

Insoniyat tarixini butunlay o‘zgartirib yuborgan va uni bugungi yuksak darajaga olib kelgan bir nechta ulkan burilish nuqtalari bor. Ulardan eng birinchisi – **olovning kashf etilishi**dir. Odamlar olovga ilk marta tabiat hodisalari tufayli yuz bergan yong‘inlar oqibatida duch kelganlar. Chaqmoq urishi, o‘rmon, butazorlarga o‘t ketishi tufayli vujudga kelgan yong‘inlar “foydasi”ni o‘rganganlar. Ular olovda pishgan go‘shtning mazali bo‘lishi, olov qorong‘ida yorug‘lik taratishi, undan hatto yirtqichlar ham qo‘rqishini anglab yetganlar. Odamlar 1,5 million yilcha oldin olovni saqlashni ham o‘rganib olganlar.

Odamlar 400 000 yil burun olovni sun’iy tarzda olishni o‘rganganliklari yana bir o‘ta muhim tarixiy voqea bo‘lgan. Bu ish qanday qilinganini bilasizmi?

Eng qadimgi yo‘sin bu toshni toshga urib, undan chiqqan uchqun orqali qovjiragan xas-xashakni yondirish sanalgan. Yo bo‘lmasa, tayoqni yog‘ochga qattiq va tinimsiz ishqalash orqali ham olov hosil qilingan.



6.4-rasm. *Ibtidoiy odamlarning sun’iy yo‘l bilan olov hosil qilishlari.*

Tarixiy sabab va oqibatlar

Olov insoniyatning olam uzra tarqalishida ham muhim o‘rin tutgan. Uning yordamida isinish imkoni tug‘ilgach, endi issiq va iliq o‘lkalardan nisbatan salqin va sovuq yurtlarga ham ko‘chib o‘tish imkoni paydo bo‘lgan.



O‘zbekning ulug‘lari



Mahmud Chag‘miniy (1221-yili vafot etgan)

Mahmud Chag‘miniy 12-yuzyillikning ikkinchi yarmida Ko‘hna Urganch shahri (hozirgi Turkmaniston hududi) yaqinidagi Chag‘min qishlog‘ida tug‘ilgan. “Bo‘linmas zarracha”, “unsuriy zarracha”, ya’ni atom haqida ilmiy izlanishlari bilan mashhurdir. 1221-yili Chingizxon qo‘shinlarining Ko‘hna Urganchga bosqini paytida Vatan himoyasi uchun otlangan va qahramonlarcha halok bo‘lgan. Qabri qayerdaligi ma’lum emas.

Yashash uchun kurash

Qadimgi odamlar juda uddaburon bo‘lganlar. Ular oddiy tosh, suyak va hayvon shoxlaridan sodda qurollar yasaganlar. Ilk ish qurollari sifatida chopqi, pichoq, qirg‘ich, bigiz, igna, shuningdek, nayza va o‘q uchlarini tilga olish mumkin. Ular inson turmushini sifat jihatdan yaxshilashga katta turtki bergan.

Yoy va o‘qning ixtiro qilinishi insonlar turmushini butunlay o‘zgartirib yubordi. Chunki bundan buyon xavfli hayvonlarga yaqinlashmay, uzoqdan zarba berish va tez harakatlanuvchi o‘ljalarni ovlash imkoni tug‘ilgan edi. Bu yangilik ham inson hayotini saqlab qolish, ham ov unumini keskin oshirishga xizmat qilgandi.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoyalariga 14 000 yil burundan boshlab chizilgan suratlarda ovchilar yoylarni tarang tortib turganlari va uchib borayotgan o‘qlar aks ettirilgan. Demak, o‘q-yoy Turonda kamida 10 000 yil oldin ixtiro qilingan.



Savol va topshiriqlar

1. Vatanimiz hududidagi qanday ilk manzilgohlarni bilasiz?
2. Kishilik taraqqiyotining tarixiy bosqichlari qanday omillarga ko‘ra davrlarga ajratilgan?
3. Olovning kashf etilishi odamlar turmushida qanday o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi?
4. Qadimgi odamlar nima maqsadda yoy va o‘qni o‘ylab topganlar va bu ularning hayotini qanday o‘zgartirgan?

Tabiatdan madaniyatga

Insoniyatning Yer yuzida yashab qolishi sababi nimada?

Bugungi hisob-kitoblarga ko‘ra, barcha kasblar va mutaxassisliklar soni 50 000 tagacha yetar ekan. Biroq uzoq o‘tmishda ular atigi bir nechta bo‘lgan, xolos. Insonning ilk mashg‘uloti terimchilik bo‘lgan. Qadimgi ajdodlarimiz daraxtlar va butalarda pishgan turli mevalar, o‘simliklar ildizlarini terib yeganlar.

Shuningdek, ular yovvoyi hayvonlarni ovlash, baliq tutish bilan ham shug‘ullanganlar. Aynan **terimchilik va ovchilik** mahsulotlari odamlarni uzoq muddat ochlik va quvvatsizlikdan asragan.



Oddiy buyumlardan murakkab asboblarga

Oldiniga ajdodlarimiz o‘zlariga eng yaqin bo‘lgan tabiiy ashyolar – yog‘och, tosh, hayvon suyaklari va terisidan foydalanganlar. Bir toshni ikkinchisiga urib, uning chetlarini sindirish va o‘tkirlashni o‘rganganlar. Shunday qilib, ularning og‘ir turmushini yengillashtirgan ilk ish va ov qurollari paydo bo‘lgan. Ajdodlarimiz bunday qurollardan unumli foydalanishni o‘rganganlar, jumladan:

1. Nayza va o‘q-yoy yordamida hayvonlarni uzoqdan turib ovlaganlar.
2. O‘tkir toshlar bilan go‘shtni kesib maydalaganlar.
3. Hayvon terilaridan o‘zlariga issiq kiyimlar tikkanlar.
4. Eng muhimi, yirtqich hayvonlardan o‘zlarini himoya qilganlar.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Nima uchun olimlar insoniyat tarixining ilk bosqichini “Tosh davri” deb ataganlar? Chunki o‘sha davrda qo‘llangan ish va urush qurollarining aksariyati toshdan yasalgan edi. Tosh buyumlar tuproq ostida chirimaydi va ming yillar davomida saqlanib qolishi mumkin. Shu sababli ular qadimgi ajdodlarimiz turmushini o‘rganishda muhim manba sanaladi.





Eslab qoling

Terimchilik – qadimgi odamlarning tabiatdagi turli mevalar va o‘simlik ildizlarini yig‘ish faoliyati.

Ovchilik – qadimgi odamlarning hayvonlarni ovlash va baliq tutish faoliyati.

10 000 – 11 000 yillar burun	Odamlar **misga ishlov berishni boshlaganlar.** Biroq bu paytda ushbu jarayon ochiq holda topilgan misni urish, burash, cho‘zish, o‘yishdan iborat bo‘lgan.
Taxminan 7000 yil oldin	Insoniyat tarixida yangi yuksalish davri boshlangan – yuqori darajali olovda ishlaydigan o‘choqda **misni eritish va ishlov berish tajribasi paydo bo‘lgan.**
5000 yil burun	Misga qalay qo‘shib, misdan ancha mustahkam bo‘lgan yangi metall – **juzin (bronza) hosil qilingan.**
3000 yil ilgari	Kishilik turmushida o‘ta muhim voqea – **temirni qayta ishlash ilmi paydo bo‘lgan.**

Tarixiy o‘zgarish va davomiylik

Juda uzoq vaqt davomida ish va urush qurollari asosan toshdan yasalgan. Tosh qurollar tez sinuvchan bo‘lgani sababli ularni qayta tiklashning deyarli imkoni bo‘lmagan. Metall qurollar esa qo‘llashga qulay va pishiq bo‘lgan. Eng muhimi, ularni qayta eritib, yangi va turlicha qurollar hamda buyumlar yasash mumkin edi. Ish qurollarining sayqal topib borishi, o‘z o‘rnida, mehnat unumini oshirgan va odamlarning turmush tarzini yaxshilab borgan.



O‘zbekning ulug‘lari



Munavvarqori Abdurashidxonov (1878 – 1931)

Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan.

Jadidchilik milliy harakatining yirik va yorqin vakili, o‘zbek milliy matbuoti va yangicha maktablar asoschisidir. Yoshlarning chet eldagi ilg‘or oliy o‘quv yurtlarida o‘qishlarini moddiy qo‘llash uchun “Ko‘mak” uyushmasini tuzgan.

1931-yili sovet hokimiyati tomonidan otib tashlangan. Qabri Rossiya poytaxti Moskvadagi Vagankovo qabristonida.

Savol va topshiriqlar

1. Insoniyat tarixi qaysi uchta katta davrga bo‘linadi?
2. Odamlarning ish qurollari toshdan temirgacha qanday bosqichlarda rivojlangan?
3. Tosh va metalldan yasalgan qurollar o‘rtasida qanday farqlar bor? Qaysi biri qulayroq bo‘lgan?
4. Qadimgi odamlar olovni qanday kashf etganlar?
5. Metalldan foydalanish qadimgi odamlar turmushida nima uchun muhim yangilik bo‘lgan?

8–9-MAVZULAR

MADANIYAT



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- ekin-tikinchilik va chorvachilik qanday paydo bo‘lganini bilib olasiz;
- odamlar nima uchun bir yerda o‘troq yashay boshlaganlarini tushunasiz;
- shaharlar qanday vujudga kelgani va turmush darajasi o‘zgarganini tasvirlab bera olasiz;
- Vatanimiz hududidagi eng qadimgi shaharlar va ularning nomlari bilan tanishasiz;
- Turondagi hamda dunyodagi boshqa qadimgi ekin-tikinchilik o‘choqlarini o‘zaro solishtirishni o‘rganasiz.

O‘troq turmushning boshlanishi



O‘zlashtiruvchilikdan yaratuvchilikka o‘tish

Odamlar juda uzoq muddat faqat ovchilik, baliqchilik va terimchilik orqali kun kechirganlariga bugun ishonish qiyin. Biroq biz uchun oddiylikka aylangan, doimiy va ishonchli ozuqa manbayi sanalmish ekin-tikinchilik va chorvachilik bor-yo‘g‘i **11 000–12 000 yil burun** paydo bo‘lgani tarixiy dalildir.

Demak, qadimgi ajdodlarimiz juda uzoq vaqt tabiatning tayyor ne'matlarini **o'zlashtirish** bilan yashaganlar. Lekin ushbu davr ular uchun behuda o'tmagan. Odamlarning tabiat, atrof-muhit haqidagi bilimlari ko'payib, tajribasi ham oshib borgan. Yerga to'kilgan urug' bir muddat o'tib unib chiqishi va hosil berishi, ovda qo'lga tushgan echki, qo'y, buzoqni saqlab turish mumkinligini anglab yetganlar. Vaqt o'tishi bilan esa ulardan yanada unumli foydalanish mumkinligini bilganlar. Maxsus yer maydoniga urug' qadab, uzoq muddatga yetadigan arpa, bug'doy **yetishtirish,** qo'l ostidagi hayvonlardan uzluksiz ravishda go'sht, sut olish, shuningdek, terisi va junidan foydalanishning afzalligini tajribadan o'tkazganlar.

Eslab qoling

Ekin-tikinchilik – odamlarning yerga ishlov berib, urug' qadab, o'zlari uchun oziq-ovqat yetishtirish faoliyati.

Chorvachilik – qo'y, echki, ot, qoramol kabi hayvonlarni boqib, ulardan go'sht, sut, jun va boshqa mahsulotlar olish faoliyati.

"Unumli yarim oy" – ilk dehqonlar vatani

Odamlarning o'troq turmushga o'tishi ***"Unumli yarim oy"*** deb atalgan tegrada boshlangan. Xaritaga e'tibor bilan qaralganda, ushbu hududning shaklan yarim oyga o'xshashligini ko'rish mumkin. Bu tarixiy o'lkaga hozirgi Misr, Falastin, Suriya, Isroil, Iroq, Turkiya va Eron davlatlarining unumli yerlari kiradi.

Xo'sh, nima uchun aynan shu yerda ilk ekin-tikinchilik va chorvachilik paydo bo'lgan? Negaki iqlimi yumshoq bo'lgan ushbu o'lkada qish namli, yoz esa issiq va quruq kechgan. Bug'doy, arpa, no'xat, zig'ir, yasmiq, echki, qo'y va qoramolning yovvoyi turlari mo'l bo'lgan.

"Unumli yarim oy"ning paydo bo'lishida mazkur tegradagi ***Nil, Dajla*** va ***Furot*** daryolari bo'ylaridagi o'ta unumli yer maydonlarining ham o'rni katta edi.

Shu tariqa, yer yuzida ilk ekin-tikinchilik madaniyati yuzaga kelgan. Odamlar endi oziqa izlab, u yerdan bu yerga ko'chib yurmay, bir yerda turg'un yashash imkoniga ega bo'lganlar. Insoniyat tarixidagi ushbu ulkan sifat o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan o'troq turmush tarzi – **o'troq madaniyat** deb ham yuritiladi.


Kun maqoli

Dehqon – yer sultoni,
Cho'pon – yaylov sultoni.

Tarixiy manbalar

"Unumli yarim oy" xaritasiga qarab, ekin ekilgan yerlar oldiniga daryolar atrofida joylashganini oson payqash mumkin.





8.1-rasm. *“Unumli yarim oy” nomli tarixiy tegra xaritasi. Unda insoniyat tarixida ilk ekin-tikinchilik vujudga kelgan serhosil o‘lkalar chegaralari hamda qadimgi madaniyatlarga asos bo‘lgan Nil, Dajla va Furot daryolari havzalari ko‘rsatilgan.*



8.2-rasm. *Turonning asosiy suv manbalari – Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari.*

Turon – mohir dehqonlar yurti

O‘lkamiz ***Turon*** ham Yer yuzidagi eng qadimgi ekin-tikinchilik o‘choqlaridan biri hisoblanadi. Zukko ajdodlarimiz bundan deyarli **8000 yil oldin** daryo vodiylari va sersuv vohalarda bug‘doy hamda arpa yetishtira boshlaganlar. Ekin-tikinchilik bilan bir qatorda, vohalar atrofidagi keng yaylovlarda qo‘y, echki va qoramol boqilib, chorvachilik ham rivojlangan.

Tarixiy manbalar

Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan Zarautsoy darasidagi qoyalarga 14 000 yil burundan boshlab chizilgan suratlarning birida qo‘lida o‘roq yoki ketmonchaga o‘xshash qurol tutib turgan 15 kishi ko‘zga tashlanadi. Agar ushbu qurol chindan ham ekin-tikin ishlariga tegishliligi ilmiy jihatdan isbotlansa, yurtimizda ekin-tikinchilik boshlangan bosqich yanada qadimgiroq davrga borib taqalishi ma’lum bo‘ladi.

Suv – hayot manbayi

Tabiat injiqliklari

Odamlar ilk bor ekin-tikinchilik qila boshlaganda, yomg‘ir suvlari, tog‘lardan oqib tushadigan soylar, daryo bo‘ylaridagi tabiiy nam yerlarga o‘ta bog‘lanib qolganlar.
Biroq tabiiy sharoit har doim ham yaxshi bo‘lavergan emas.

Soylar, daryolar toshib, barcha ekinlarni yuvib ketgan, qurg‘oqchilik yillarida esa o‘simliklar nobud bo‘lgan holatlarda inson ojiz qolgan.

Biroq yuz, ming yillar ichra tajriba to‘plagan, o‘z ustida ishlashdan to‘xtamagan ajdodlarimiz bu muammoning oqilona yechimini topganlar. Ular tabiatning tengsiz in’omi sanalmish **suvni o‘zlariga xizmat qildirishga kirishganlar.**

Tarixiy sabab va oqibatlar

Ekin maydonlarini sug‘orishda tabiat in’omlari – ko‘kdan yog‘iladigan qor va yomg‘ir, daryo, soy va buloq suvlariga qattiq bog‘lanib qolish oqibatlarini ko‘rgan ajdodlarimiz sun’iy sug‘orish tizimini yaratishga majbur bo‘lganlar.



Qadimgi dehqonlar ekinlarni sug‘orish uchun g‘oyat murakkab muhandislik usullarini o‘ylab topganlar. Ular halokatli toshqinlarning oldini olish uchun daryo bo‘ylarida tuproq va toshlardan balandroq to‘siqlar – to‘g‘onlar qurganlar. Suvni uzoqdagi qurg‘oqchil dalalarga yetkazish uchun esa yer qazib, uzun ariqlar o‘tkazganlar.

Mana shu yo‘l bilan ekin yetishtirish tarixda **sug‘orma ekin-tikinchilik** deb ataladi. Bu shunchaki yerga urug‘ qadash emas, balki tabiatga qaram bo‘lmay, yomg‘irni kutmasdan ekinlarga o‘z vaqtida suv yetkazib berish usuli bo‘lgan. Shuningdek, ajdodlarimiz jazirama issiq va qurg‘oqchilik paytlarida foydalanish uchun suvni maxsus hovuzlarda (suv omborlarida) to‘plab saqlashni ham mukammal o‘rganganlar.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Turonda sun’iy sug‘orish ishlari 6000 yil burun yo‘lga qo‘yilgani ma’lum. 2700–3500 yil oldin Surxon vohasida qazilgan ulkan Jarqo‘ton arig‘ining 100 metri bugun ham bor, Zarabog‘ arig‘ining uzunligi esa 4 kilometrgacha borgan. Bandixon arig‘ining eni 8–10 metr bo‘lib, kamida 3,5 kilometrgacha cho‘zilgan. Qashqadaryo vohasidagi Qayrag‘och arig‘ining uzunligi ham 3,5 kilometr edi. Xorazm vohasida 50 kilometrgacha yetgan Ko‘zaliqir arig‘i qazilib, to‘g‘onlar qurilgan.



Tarixiy o‘zgarish va davomiylik

Suvni bir tomchi ham isrof qilmaslik va undan unumli foydalanish madaniyati bizga uzoq ajdodlarimizdan qolgan eng yuksak qadriyatdir. Qadimda suvni iflos qilgan yoki uni besabab isrof qilgan odamlar qattiq jazolanganlar.



Turon – insoniyatning ilk madaniy o‘choqlaridan biri

Ko‘rib turganingizdek, yurtimiz tuprog‘ining unumliligi, suvning mo‘lligi, eng muhimi, bobo-dehqonlarimiz bilim va mahoratining zamonlar sari yuksalib borishi natijasida ekin-tikinchilik, bog‘dorchilik o‘ta rivojlanib ketgan. Qadimda ajdodlarimiz bug‘doy, arpa, tariq, anjir, jiyda, bodom, uzum, tut yetishtirganlar, paxta ekib, pilla qurti boqqanlar, ya’ni ipak tayyorlaganlar. Bunday yuksak yutuqlarga **4000 yil ilgari** erishgan **Turon eli insoniyatning ilk madaniy o‘choqlaridan biri sanaladi.**

Shahar madaniyati

Daladan – shinam uylargacha

Ekin-tikinchilik madaniyatiga o‘tish odamlarning turmush tarzini butunlay o‘zgartirib yubordi. Negaki dalada tinimsiz ishlash, yig‘ilgan hosilni qayerdadir saqlash, qo‘riq-lash, qayta ishlash kerak edi. Natijada, hosilni saqlash uchun omborxonalar, oilalar uchun esa alohida xonalar qurilgan. Ovqat pishirish va don saqlash uchun esa loydan idishlar tayyorlash, ya’ni kulolchilik paydo bo‘lgan. Ish qurollarini yasash uchun esa odamlar birinchi marta metallga ishlov berishni – mischilikni o‘rganib olganlar.

Vaqt o‘tishi bilan biror dehqonning qo‘lida ehtiyojidan ortiq bug‘doy yig‘ilgan, boshqa bir usta esa ajoyib o‘tkir pichoq yasagan. Ular o‘z mahsulotlarini o‘zaro almashishga o‘tganlar. Mana shu tariqa insoniyat tarixida **ayirboshlash** bosqichiga o‘tilgan. Biz bugun savdo-sotiq deb ataydigan faoliyat turi aynan shundan boshlangan.

Turmush darajasi yaxshilanib borgani sari odamlar ham, yangi uylar va maxsus imo-ratlar ham ko‘payib borgan. Qarindosh-urug‘chilik rishtalari yoki kasbiga qarab bir joyda yoki bir ko‘chada yashash odat tusiga kirgan. Bugun barchamiz uchun qadrli sanalmish mahallalar shunday paydo bo‘lgan.





8.3-rasm. *Sopollitepa shahrining qayta tiklangan ko‘rinishi.*

Yurti tinchning eli tinch

Bobo-buvilarimizdan qolgan ushbu maqol biz so‘z yuritayotgan o‘sha qadim zamonlardayoq tug‘ilgan bo‘lsa, ajabmas. Negaki odamlar, uylar, ko‘chalar, mahallalar tinchligini saqlash, ombordagi hosil, ustaxonalardagi buyumlarni begonalar va dushmanlardan himoya qilish o‘ta jiddiy masala bo‘lgan. Aynan ushbu hayotiy zarurat qadimgi ajdodlarimizni o‘z yashash va ishlash tegralari (mahallalari) atrofini baland va qalin mudofaa devorlari bilan o‘rab olish, kirib-chiqish uchun esa mustahkam darvozalar qurishga undagan. Mudofaa istehkomlari, rejali va aql bilan barpo etilgan ilk qo‘rg‘on-shaharlar shunday paydo bo‘lgan.

Ilk shaharlar Yer yuzida bundan taxminan **3000–5000 yillar oldin** vujudga kela boshlagan. Ular orasida bugun ko‘pchilikka tanish ***Bayrut, Quddus, Damashq*** singari shaharlar ham bor.

O‘zbekiston ham dunyodagi eng qadimgi shaharlar vatani sanaladi. Surxondaryo vohasidagi ***Sopollitepa, Jarqo‘ton,*** Farg‘ona vodiysidagi ***Dalvarzin,*** Zarafshon havzasidagi ***Samarqand*** kabi shaharlarning yoshi **3000–4000 yilga teng.**

Mangu shaharlarimiz

Jonajon yurtimiz shaharlarining o‘ziga xosligi nimadaligini bilasizmi?

Ular o‘tmishda yuz bergan turli sinovlar – tabiiy ofatlar (zilzilalar, suv toshqinlari, qurg‘oqchilik va boshqalar), urush va bosqinlarga qaramay minglab yillar davomida qad ko‘tarib kelmoqda.

Keling, ularning yoshini tarixiy jadval orqali ko‘rib chiqamiz:

Samarqand – **3000 yoshda;**	***Jizzax*** – **2300 yoshda;**
Qarshi va ***Shahrisabz*** – **2700 yoshda;**	***Toshkent*** – **2200 yoshda;**
Buxoro, ***Xiva*** va ***Termiz*** – **2500 yoshda;**	***Marg‘ilon*** va ***Qo‘qon*** – **2000 yoshda.**

O‘zbekning ulug‘lari



Ali Qushchi (1403–1474)

Ali Qushchi 1403-yili Samarqandda tug‘ilgan. Ulug‘bek rasadxonasidagi ilmiy ishlarga bosh-qosh bo‘lgan. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishini bashorat qilgan.

1474-yili Istanbulda olamdan o‘tgan. Abu Ayub Ansoriy qabristonida ko‘milgan.

Savol va topshiriqlar

1. Qadimgi odamlar nima sababdan ko‘chmanchi turmushdan o‘troq turmushga o‘tganlar?
2. Odamlar ilk ekin-tikinchilik va chorvachilikni qanday boshlaganlar?
3. Biz yashayotgan Turon o‘lkasi hamda “Unumli yarim oy” hududidagi dehqonchilik madaniyati o‘rtasida qanday o‘xshashliklar bor?
4. Vatanimiz hududida paydo bo‘lgan ilk shaharlarning nomini va ularning taxminiy yoshini ayting.
5. Ilk shaharlarning barpo etilishi odamlarning turmush tarzini qanday o‘zgartirgan?

10-MAVZU

TARIXDA TA’LIM



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- qadimgi madrasalar qanday bo‘lganini va u yerda qaysi fanlar o‘qitilganini bilib olasiz;
- o‘tmishdagi maktablar bilan bugungi maktablarni o‘zaro solishtirishni o‘rganasiz;
- buyuk ajdodlarimiz va ularga ta’lim bergan ustozlar bilan tanishasiz;
- nima sababdan ilm olishni aynan yoshlikdan boshlash kerakligini tushunasiz;
- ustozlarni qadrlash va ularni hurmat qilish nima uchun muhimligini anglab yetasiz.

Ustozlarga ehtirom

Buyuk bobolarimizdan ibratli hikoyalar


Amir Temur vasiyati

Siz Samarqanddagi ***Amir Temur maqbarasi***ga kirganmisiz? Yo‘lingiz tushib, u yerda bo‘lsangiz, bir ibratli holatga guvoh bo‘lasiz. Xilxonaning eng to‘rida Sohibqiron ***Amir Temur*** emas, balki uning ustozi – ***Sayyid Baraka*** ko‘milgan. Amir Temur o‘limidan oldin shunday vasiyat qilgan: *“Meni ustozimning oyoq tomoniga ko‘minglar”.* Bu bilan u nima demoqchi bo‘lgan?
Ha, tirikligida Sayyid Barakaga o‘z otasidek mehr va hurmat ko‘rsatgan buyuk bobomiz Amir Temur dunyodan o‘tgach ham ustoz-shogird an’anasini buzishni, undan yuqorida yotishni istamagan.

50 yil o‘tib ham unutilmagan yaxshilik

Kun maqoli
Ustoz otangdek ulug‘.

Buyuk olim va hukmdor ***Ulug‘bek***ning xotirasi juda kuchli bo‘lgan. U to‘rt yoshida ***Orif Ozariy*** ismli yosh yigitdan saboq olgan. Oradan roppa-rosa ellik yil o‘tib, Ulug‘bek katta olim bo‘lib yetishgan va davlatimizni boshqarib turgan kezlarda uning huzuriga oddiy va eski kiyimda bir kishi kirib kelgan. Ulug‘bek uni darrov tanigan va: *“Siz bir paytlar menga hikoyalar aytib bergan ustozim emasmisiz?”* deb so‘ragan. Ustozi bilan quyuq ko‘rishib, o‘tgan kunlarni eslaganlar. Ulug‘bek ustozini eng qimmatbaho sovg‘alar bilan siylagan.



10.1-rasm. *Taxminan 1540–1550-yillari Abdulla Musavvir tomonidan chizilgan “Olimlar majlisi” nomli tasviriy asar.*

So‘z mulkining sultoni

Yana bir buyuk bobomiz ***Alisher Navoiy*** “G‘azal mulkining sultoni” sifatida dunyoga tanilgan. Ammo juda kamtar bo‘lgan Navoiy o‘zidan katta yoshli shoir ***Mavlono Lutfiy***ni barcha turkiy shoirlarning ustozi deb bilgan va uni “So‘z mulkining sultoni” deb ulug‘lagan.

Ikki buyuk olim va o‘zaro hurmat

Islom olamidagi ikki buyuk olim – ***Imom Muhammad Buxoriy*** va ***Imom Muhammad Termiziy*** o‘rtasidagi o‘zaro hurmat hammani hayratga soladi.

Imom Buxoriy shogirdi Imom Termiziyning ilmiga yuksak baho bergan va unga: *“Aslida men sendan ko‘rgan foyda, sen mendan ko‘rgan foydadan ko‘proq”*, deb aytgan. Ustozi vafot etganda Termiziy qattiq qayg‘urganidan ko‘zlari ko‘rmay qolgan. Bu ustoz va shogird o‘rtasidagi mehr-oqibat qanchalar kuchli bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tarixiy o‘xshashlik va farqlar

Tarixiy voqealarni diqqat bilan o‘qisangiz, buyuk shaxslarning turmush yo‘llari bir-biridan farq qilganiga qaramay bir masalada ular bir xil yuksak fazilatga ega bo‘lganliklari ayon bo‘ladi. Bu yuksak fazilat – ustozlariga bo‘lgan mangu sadoqat, cheksiz hurmat va kamtarinlikdir.



Bilib qo‘ygan yaxshi

1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni sifatida yurtimizda keng nishonlanadi. Bu kunda bizga bilim bergan, turmushni o‘rgatgan aziz insonlarga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Eslab qoling

Maqbara – qabr ustiga qurilgan imorat. Odatda maqbara atoqli tarixiy shaxslarga atab barpo etiladi.

Madrasa – hozirgi davr universitetlariga qiyoslanadigan o‘tmishdagi oliy o‘quv yurti.

Xilxona – biron qarindosh-urug‘, mahalla, o‘tmishda esa sulola vakillari uchun qabristonda maxsus ajratib qo‘yilgan yer maydoni.

Qadimgi maktablar va universitetlar

Erta boshlangan ta’lim

Bundan deyarli **1500 yil oldin,** ya’ni **6-yuzyillik**da yashagan bolalar hozirgi bolalardan ham ertaroq ta’lim olishni boshlaganlar. Tasavvur qiling, ular hali atigi besh yosh bo‘lishlariga qaramay, saboq olishga kirishganlar. **Yozish, sanash** va bir necha **tillar**ni mukammal o‘rganganlar. O‘sha davrda chiroyli yozadigan, hisob-kitobni biladigan va chet tillarida gaplasha oladigan odamlar davlat va savdo-sotiq ishlarida juda qadrlanganlar.

Uyda aytilgan dostonlar

Bolalar bilimni faqat o‘quv dargohlarida emas, balki o‘z uylarida ham olganlar. Ota-onalar farzandlariga o‘z ajdodlarini tanitishni burch deb bilganlar. Kechalari oila davrasida bolalarga qiziqarli **dostonlar** va **ertaklar** aytib berilgan. Ayniqsa, zukko va botir ***Alpomish*** hamda uning oqila va vafodor yori ***Barchinoy*** haqidagi hikoyalar bolalarning eng sevimli asarlari bo‘lgan. Bu dostonlar orqali bolalar o‘z yurtini sevishni va xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishni o‘rganganlar.

Dunyodagi eng qadimgi universitetlar

O‘zbekiston qadimdan jahon ilm-fan o‘choqlaridan biri bo‘lgan. “Bilimlar yurti” o‘laroq dong‘i ketgan Buxoro shahrida faoliyat yuritgan ***Forjak madrasasi*** dunyodagi ilk universitetlardan biri sanaladi. U juda qadimgi bo‘lib, afsuski, **937-yili** kuchli yong‘in oqibatida vayron bo‘lgan. **11-yuzyillikda** yurtimizda ilm yuksak darajada rivojlangan edi, birgina ***Samarqand*** shahrining o‘zida 17 ta madrasa yoshlarga bilim bergan. Bu vaqtda endilikda Yevropaning eng mashhur universitetlari – Angliyadagi ***Oksford*** (1096-yil) va ***Kembrij*** (1209-yil) hali tashkil etilmagan edi. Turon madrasalarida o‘qitilgan fanlardan ulardagi bilim berish sifatini bilib olish mumkin, albatta:

matematika	geografiya	tarix	arab tili	hadis ilmi	huquq
astronomiya	tibbiyot	adabiyot	Qur’on ilmi	mantiq	notiqlik

Bilib qo‘ygan yaxshi

Samarqanddagi Registon maydonida Ulug‘bek, Sherdor va Tillakori madrasalari qad ko‘targan. Bir vaqtning o‘zida uch oliy o‘quv yurtining bir maydonda joylashib, o‘zida ham go‘zallik, ham bilimni mujassam etgan holatni dunyoning biron yerida uchratmaysiz.

Jadidlar kim bo‘lganlar?



10.2-rasm. *Toshkentdagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘ining o‘rtasida qad ko‘targan Mustaqillik yodgorligida Jadidchilik milliy harakatining yetakchi va yirik vakillari – Abdulla Qodiriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy tasvirlanganlar.*

Yangilanishlar sari qadam

Bundan yuz yildan ko‘proq vaqt oldin, ya’ni **19-yuzyillik oxiri** va **20-yuzyillik boshlarida** yurtimizni ozod etish, milliy davlatchiligimizni tiklash va xalqimizni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga bel bog‘lagan buyuk insonlar paydo bo‘lganlar. **Biz ularni *jadidlar* deb ataymiz.**

Nima uchun ularni shunday ataganlar? Negaki ular jamiyatimizni tubdan yangilash – yurtimiz boshqaruvi, ishbilarmonlik, ekin-tikinchilik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mahalla, oila, xotin-qizlar, yoshlar turmushini eng ilg‘or tarzda yo‘lga qo‘yishga intilgan edilar. Ularning mazkur g‘oya va intilishlarini xalqimizning barcha qatlamlari – olimlar, shoirlar, yozuvchilar, o‘qituvchilar, ishbilarmonlar, dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, din arboblari qo‘llaganlar.

Najot – ta’limda!

Amir Temur bobomiz o‘z davrida: ***“Rostlik qutqaradi”,*** degan bo‘lsa, jadid bobolarimiz ***“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada!”*** degan yuksak g‘oya bilan maydonga chiqqanlar. Ular bolalarning xat-savodni tez, oson va qiyinchiliksiz o‘rganishlari uchun mutlaqo yangicha maktablar ochdilar. Bu maktablarda darslar juda qiziqarli o‘tilgan.

Jadidlar – millat fidoyilari

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ma’rifatparvar bobolarimiz to‘siqlarga qaramay, xalqni ilm-ma’rifatli qilish yo‘lida fidokorona kurashganlar. Ular Vatan kelajagini o‘z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yganlar.

Afsuski, o‘sha zamondagi hukmron va yovuz kuchlar ularning bu ezgu harakatlarini to‘xtatishga uringanlar. Keyin esa jadidlar shafqatsizlarcha qatag‘on qilindilar.

Jadid bobolarimiz Vatan va millat uchun o‘zlarini qurbon qilganlar. Biroq ular sochgan ma’rifat nuri hech qachon so‘nmagan. Aksincha, u bugungi erkin va ilg‘or hayotimizga yo‘l ko‘rsatib kelmoqda.



Eslab qoling

Jadid – o‘zbek tilida “yangi” degan ma’noni bildiradigan arabcha so‘z.

Qatag‘on – odamlarni davlat tomonidan nohaq ta’qib qilish, quvg‘in qilish, qamoqqa tashlash yoki o‘ldirish.



Bilib qo‘ygan yaxshi

Jadidlar o‘z mablag‘lari hisobidan iqtidorli yoshlarni Germaniya, Turkiya kabi chet davlatlarga o‘qishga yuborganlar. Ular o‘zbek yoshlarining dunyodagi eng kuchli mutaxassislar bo‘lib yetishishlari va el-yurt yuksalishi yo‘lida xizmat qilishlarini juda-juda istaganlar.



Savol va topshiriqlar

1. Yurtimizdagi eng qadimgi madrasalar qachon tashkil etilgan va ularda qaysi fanlar o‘qitilgan?
2. Amir Temur, Ulug‘bek va Alisher Navoiy kabi buyuk bobolarimizga kimlar ustozlik qilganlar va ilm berganlar?
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa jadid bobolarimiz xalqimizning bilimli va ma’rifatli bo‘lishidan ko‘zlagan maqsadlari qanday bo‘lgan?
4. Jadid bobolarimiz maktab ta’limini va xalqimiz turmushini yaxshilash uchun qanday yangiliklarni kiritganlar?

11–12-MAVZULAR

DAVLATCHILIK TARIXI



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- odamlar nima sababdan davlat tuzganlarini tushunib olasiz;
- eng birinchi davlatlar qachon va qayerda paydo bo‘lganini bilasiz;
- davlat nima uchun ulkan uyga o‘xshatilishini tushunasiz;
- qonunlar va soliqlar davlat hayotida nima uchun juda muhimligini anglaysiz.

O‘zbek davlati, Turon va Turkiston

Dunyoda 7000 dan ortiq xalq bor. Biroq bugun davlatlar soni atigi 195 ta. Demak, o‘z davlatiga ega bo‘lish har qanday xalqqa ham nasib etmas ekan! **Biz – o‘zbek xalqi esa o‘z davlatchiligiga ega xalqmiz.**

Bizning davlatimiz – O‘zbekiston! O‘zbekiston davlatini yana qanday ifodalash mumkin? O‘zbekiston Respublikasi, o‘zbek davlati.

Tarixiy o‘xshashlik va farqlar

Xalqni oilaga solishtirsak, davlatni shu oila yashayotgan uyga o‘xshatish mumkin. Har qanday uyning o‘z egasi, eshik, devorlari, hovlisi, tartib-intizomi, oilaga tegishli pul, mol-mulk, an’analar bo‘lganidek, davlatning ham yer maydoni, chegaralari, iqtisodiyoti, xazinasi, mol-mulki, qonun-qoidalari va ma’naviyati bo‘ladi.



Bilib qo‘ygan yaxshi

O‘zbekiston Respublikasining:
aholisi – 39 million (2026);
milliy pul birligi – so‘m (UZS);
boshqaruv turi – respublika;
yer maydoni – 448 978 kv. km;
chegaralari uzunligi – 7090 km;
poytaxti – Toshkent shahri;
davlat tili – o‘zbek tili.



11.1-rasm. *Eng qadimgi davlatlar tashkil topgan hududlar xaritasi.*

Davlat qanday bo‘lishi kerak?

Ushbu savol ustida bosh qotirgan buyuk bobomiz ***Abu Nasr Forobiy*** **1100 yil burun** shunday xulosa qilgan:

> “Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir. Bunga esa ilm va yaxshi axloq yordamidagina erishiladi”.

Demak, **baxt-saodat kaliti bilim va yaxshi xulqdir.**

3000 yillik tarixga ega o‘zbek davlati

Turli xalqlar turli zamonlarda o‘z davlatchiligiga ega bo‘lganlar. Davlatchilik paydo bo‘lgan ilk yurtlar esa sanoqlidir. Ular sirasiga hozirgi ***Iroq, Misr, Hindiston, Xitoy, Eron*** va ***O‘zbekiston-Turonni*** kiritish mumkin.

Qadimda davlatlar hozirgidek katta-kichik kengliklarda emas, balki biron-bir shahar doirasida shakllangan. Shuning uchun ham ular **shahar-davlatlar** deb ataladi.

Bilib qo‘ygan yaxshi

Eng qadimgi shahar-davlatlar sanalmish Uruk, Ur, Kish, Lagash 6000 yil burun hozirgi Iroq hududida barpo bo‘lgan (8.1-rasm).

Bunday shahar-davlatlar O‘zbekistonda **3500–4000 yil oldin** qad ko‘targan. Ularni eslab qoling: Surxondaryo vohasidagi ***Sopollitepa, Jarqo‘ton,*** Farg‘ona vodiysidagi ***Dalvarzin*** (8.2-rasm).

Bilib qo‘ygan yaxshi

Eng ko‘hna podsholiklar 5100 yil oldin Misrda, 4900 yil burun Iroqda, 4700 yil ilgari Eronda, 4600 yil avval Hindistonda, 3700 yil muqaddam Xitoy yerlarida paydo bo‘lgan.

Butun yurtimiz bo‘ylab esa milliy davlatchiligimiz **3000 yil oldin** shakllangan. **Demak, o‘zbek davlati kishilik tarixidagi eng qadimgi davlatlardan biridir!**



Alp Er To‘nga

Davlatimizning ilk bosqichlaridagi siyosiy turmush qanday kechgani haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Afsuski, ular haqida so‘zlovchi yozma manbalar bizgacha yetib kelmagan yoki haligacha topilmagan. Ammo shunga qaramay, ayrim guvohliklar bor.

Tarixiy manbalar

10-yuzyillikda yashab o‘tgan buxorolik tarixchi Muhammad Narshaxiy Buxoro shahrini Afrosiyob, ya’ni Alp Er To‘nga qurgani haqida rivoyat keltiradi. Buxoro shahrining yoshi kamida 2500 yilga tengligi ko‘zda tutilsa, Alp Er To‘nga bundan ilgariroq yashagani va davlatimizning ilk hukmdorlaridan biri ekani ayon bo‘ladi.



Eslab qoling

Afrosiyob Alp Er To‘nganing eronlashgan nomidir. Alp Er To‘nga esa buyuk bobomizning o‘z otidir. Bunda alp – botir, er – erkak, to‘nga – yo‘lbars ma’nolarini anglatadi. Demak, Alp Er uning oti bo‘lib, yo‘lbars laqabidir. Ya’ni **yo‘lbarsdek kuchli va qo‘rqmas.**

Buyuk bobomiz xalq orasida shunchalik suyukli va mashhur bo‘lganki, vafotidan so‘ng butun Turon eli juda qattiq qayg‘uga botib, motam tutgan. Buyuk tilshunos olimimiz Mahmud Koshg‘ariyning mashhur ***“Turkiy so‘zlar lug‘ati”*** asarida Alp Er To‘nganing o‘limiga bag‘ishlangan **motam qo‘shig‘i** (marsiya) bizgacha saqlanib qolgan:

“Alp Er To‘nga o‘ldimu?	Alp Er To‘nga o‘ldimi?
Esiz dunyo qoldimu?	Bu dunyo usiz qoldimi?
Falak o‘chin oldimu?	Osmon o‘z o‘chini oldimi?
Emdi yurak yirtilur...”	Endi yuraklarimiz g‘amdan yirtilib ketyapti...

Turon sivilizatsiyasi

Aziz o‘quvchilar! O‘tgan bir necha darsda sizlar O‘zbekiston, umuman, Turon tarixi haqida ilk, ammo ayrim xulosalar yasash uchun yetarli bilimlarni oldingiz. Mustaqil mashg‘ulotlar davomida esa yurtimiz va insoniyatning eng qadimgi o‘tmishi yuzasidan xulosalarga ega bo‘ldingiz.

Ko‘rib turganingizdek, minglab yillar burun bobo-buvilarimiz birinchilardan bo‘lib o‘troq turmush kechirishni boshlaganlar, ekin ekib, bog‘lar yaratishga o‘tganlar, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar.

Ular jahon xalqlari tarixida birinchilardan bo‘lib qo‘rg‘onlar va ular negizida shaharlar qurganlar. Eng asosiysi, yuksak madaniyat belgisi bo‘lmish davlatchilikka asos solganlar.

Bunday har tomonlama yuksalish holati esa zamonaviy ilm-fanda sivilizatsiya deb ataladi. Demak, **kishilik tarixida Turon sivilizatsiyasining o‘z o‘rni bo‘lgan.**
Ushbu sivilizatsiyaning paydo bo‘lib, yuksalishida har bir tarixiy o‘lka va vodiylarimizning xizmati bor. ***Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Xorazm, Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo, Andijon, Namangan, Farg‘ona*** haqida eshitgansiz, albatta. Keyingi darslardan boshlab ularning har biriga tarixiy sayohatlar uyushtiramiz.

O‘zbekning ulug‘lari



Shohrux (1377–1447)

Shohrux 1377-yili Samarqandda tug‘ilgan. Otasi Amir Temurdan so‘ng 1409–1447-yillari davlatimizni boshqargan buyuk shaxs. Ikkinchi Uyg‘onish davri – Temuriylar oltin chog‘ining yuksalishini ta’minlagan ulug‘ arbob. 1447-yili Ray shahrida (Eron) vafot etgan va Amir Temur maqbarasida dafn etilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan oldingi davlatlar ulkan mamlakat emas, balki atigi bitta shahar va uning atrofidagi ekinzorlardan iborat bo‘lgan?
2. Jonajon Vatanimiz hududida vujudga kelgan eng qadimgi shahar-davlatlar qaysilar va ular qachon paydo bo‘lgan?
3. Qadimgi kichik shahar-davlatlar bilan bugungi zamonaviy davlatlar o‘rtasida qanday o‘xshashliklar bor?
4. Alp Er To‘nga kim bo‘lgan?
5. Qadimgi rivoyatlarda Alp Er To‘nganing qanday fazilatlari ulug‘langan?

13-MAVZU

O‘ZBEK TILI TARIXI



Ushbu darsdan so‘ng siz:

- odamlar nima uchun tilga ehtiyoj sezganlarini bilasiz;
- dunyoda til oilalari nima uchun paydo bo‘lganini tushunib olasiz;
- o‘zbek tiliga yaqin bo‘lgan qardosh turkiy tillar haqida ma’lumotga ega bo‘lasiz;
- o‘zbek tiliga davlat tili maqomi qachon berilganini bilib olasiz.

Til – millatning so‘zi

Ona tilim – jonu dilim

Dunyoda 7000 dan ortiq til bor, biroq ularning barchasi ham **davlat tili** maqomiga ega emas. Til davlat tili maqomiga erishishi uchun o‘sha tilning egasi bo‘lgan xalq o‘z davlatchiligiga ega bo‘lishi lozim. Demak, har qanday xalqqa ham o‘z davlati va o‘z davlat tili nasib qilavermas ekan.

Tilning paydo bo‘lishi va zarurati

Inson nutqi birdan paydo bo‘lmagan. Qadim zamonlarda yashagan odamlarning tili juda sodda bo‘lib, bir-birini chaqirish, xavfdan xabar berish, ov qilish, tuyg‘ularini bildirishda o‘ta zarur tovushlardan iborat edi. Odamlarda birgalikda yashash, oziq-ovqat topish, jon saqlash tushunchasi kuchayib borgani sayin bir-birini yaxshiroq anglash zarurati ham ortib borgan. Nihoyat, **50 000 – 70 000 yillar oldin** odamlarda so‘zlashuv qobiliyati yuzaga chiqqan. Qizig‘i, insonlarda rassomchilik qobiliyatining paydo bo‘lishi – qoyatoshlarga suratlar chiza boshlash pallasi ham aynan shu davrga to‘g‘ri keladi.

Turkiy tillar oilasi

Kun maqoli

Tili birning – dili bir.

Til va dil birligi inson, jamoa va jamiyatda o‘zaro ishonch paydo bo‘lishiga xizmat qilib, uni yanada kuchli va ahil etadi.

Odamlar Yer yuzi bo‘ylab tarqalib, bir-birovlaridan uzoqlashganlari, ayniqsa, ekin-tikinchilik – o‘troq madaniyatga o‘tish vaqtida tillarda ham farqlar tug‘ila boshlagan. Shu tariqa, **10 000 yillar burun** kelib chiqishi, qarindoshligi va boshqa ayrim o‘xshashliklariga ko‘ra til birliklari – **til oilalari** paydo bo‘la boshlagan. Hozirda til oilalarining eng asosiylari 200 tadan oshadi. Ular sirasida o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, turk, uyg‘ur va tatar kabi **35 dan ortiq** turkiy tilni o‘z ichiga olgan **turkiy tillar oilasi** ham bor.

O‘zbek tili qachon paydo bo‘lgan?


Tilimiz jahon tillari orasida eng qadimgilaridan biridir. Uning paydo bo‘lishi va sayqallanish jarayoni yurtimizda odam zoti yashay boshlagan zamonlardan beri o‘tgan minglab yillarni qamrab oladi. Ming afsuski, ushbu jarayon qanday kechganini hozircha bilmaymiz. Biroq bizga buni anglashda yozuvlar yordam berishi mumkin.
Turonda yozuvning tug‘ilish tarixi ham juda qadim zamonlarga – qoyatoshlardagi chizma va suratlarga borib taqaladi. Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani Quruqsoy darasidagi ***Siypantosh*** qoyalarida ajdodlarimiz tomonidan o‘yib chizilgan 824 ta surat saqlanib qolgan.



13.1-rasm. *Siypantosh qoyalariga chizilgan suratlar.*

12 000 yil burundan boshlab chizilgan ushbu suratlarda odam, uning qo‘li va panjasi, urush va ov qurollari, hayvonot dunyosi, oy, quyosh, yulduzlar, geometrik belgilar tasvirlangan. Qizig‘i, o‘sha zamon rassomlari qora, to‘q va och jigarrang bo‘yoqlardan ustalik bilan foydalanganlar. **Petrogliflar** deb atalmish ushbu suratlar orqali qadimgi bobo-buvilarimiz go‘yoki bizga o‘z kundalik turmushlari haqida ma’lumot qoldirganlar.

Vaqt o‘tgan sayin odamlar suratlar va o‘zgacha belgilar orqali axborot qoldirishni boshlaganlar. Ushbu tarixiy jarayonni ***qadimgi shumerlar*** boshlab berganlar. Ular “qush” so‘zini qush, ko‘rmoqni “ko‘z”, yig‘lamoqni “ko‘z” va “suv tomchisi” suratlari orqali ifodalaganlar. Shu tariqa, yozuv tizimining ilk bosqichlaridan biri – **piktografiya** paydo bo‘lgan.



Baliq	Qush	Bolta	Yoy o‘qi	Suv idishi

13.2-rasm. *Qadimgi piktografik yozuvlarga misollar.*

Eslab qoling

Petroglif – qadimgi odamlar tomonidan qoya va toshlar yuzasiga chizilgan suratlar.

Piktografiya – biror ma’lumot yoki voqeani turli ramziy suratlar orqali ifodalaydigan eng qadimgi suratli yozuv turi.

Ilgariroq o‘zbek davlatchiligining vujudga kelishida ***Sopollitepa*** va ***Jarqo‘ton*** kabi ko‘hna shaharlarning o‘rni haqida bilib olgandik. Yurtimizda yozuv madaniyatining paydo bo‘lishida ham ular muhim ahamiyat kasb etgan. Aynan ushbu shaharlarda **4000 yil burun** birinchi piktografiya belgilari paydo bo‘lgan. Ko‘rib turganimizdek, yurtimizda yozuvlar juda qadim tarixga ega.

Bugungi kungacha yozuvlarimizning ko‘plab turlari bo‘lgan. Ular ichida keng tarqalganlaridan biri **arab yozuvidir.** Hozirda qo‘llanayotgan alifbomiz **lotin yozuvi**ga asoslangan.

Tarixiy o‘zgarish va davomiylik

Yozuvlar o‘zgarishi mumkin, biroq tilni birdan o‘zgartirib bo‘lmaydi. Uni faqat yo‘q qilish mumkin. Hozirda dunyo tillari orasida har ikki haftada bir til yo‘qolib bormoqda. Demak, ***tilimizni asrash har birimizning muqaddas va birlamchi burchimizdir.***



O‘zbek tili – davlat tili

1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan **“Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun** ham tilimizni asrash maqsadini ko‘zlaydi. O‘zbekistonning har bir fuqarosi davlat tili – o‘zbek tilini bilishi lozim. Davlat tilini bilish yurtimizda yashayotgan **130 dan ortiq** millat va elat vakillari bilan qiyinchiliksiz so‘zlashish, o‘zaro tushunish, turli idoralarga murojaat qilish imkonini beradi. Jadidlarimiz tilimizni avaylash va boyitish haqida ko‘p va tinimsiz qayg‘urganlar. ***Mahmudxo‘ja Behbudiy***ning ushbu fikrini eslab qoling:

> **Til birligi do‘stlik, muhabbat, bir-biriga yordam va jipslashuvning asosidir.**

Jadidlarimiz chet tillarni ham bilish o‘ta zarurligiga doim urg‘u berganlar. O‘z ona tilini qadrlagan Mahmudxo‘ja Behbudiy ham ***“Ikki emas, to‘rt til lozim”*** deya chet tillarni o‘rganishga da’vat qilgan.

O‘zbekning ulug‘lari



Lutfiy (1366–1465)

Lutfiy 1366-yili Toshkentda tug‘ilgan. Lutfiy – buyuk shoir, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab ijodkorlarning ustozi. Amir Temurga bag‘ishlangan “Zafarnoma” dostonini yozgan. 1465-yili Hirot shahri (hozirgi Afg‘oniston hududi) yaqinida vafot etgan. Qabri ham shu yerda.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun odamlar o‘zaro so‘zlashishga ehtiyoj sezadilar?
2. Bizning ona tilimiz qaysi yirik til oilasiga tegishli va unga yana qaysi qardosh tillar kiradi?
3. Yozuvlar boshida qanday ko‘rinishda bo‘lgan?
4. Ona tilimizga qachon davlat tili maqomi berilgan? Dunyodagi barcha tillar ham shunday maqomga egami?

O‘z bilimingizni tekshiring

1-topshiriq. Qadimgi odamlar turmushida yuz bergan voqealarning sababi va oqibatini chiziqlar yordamida to‘g‘ri tutashtiring.

Tarixiy sabab (Nima uchun?)	Tarixiy oqibat (Nimaga erishildi?)
A) Ibtidoiy odamlar yolg‘iz holda yirtqich hayvonlardan o‘zlarini qo‘riqlay olmaganlar.	1) Odamlar g‘orlarga qaram bo‘lmay, o‘zlari istagan yerlarda uylar qurib yashay boshlaganlar.
B) Odamlar paxsa va guvaladan mustahkam uylar qurishni o‘rganganlar.	2) Odamlar birlashish va jamoa bo‘lib yashashga majbur bo‘lganlar.
D) Tashqi bosqinlar kuchaygan, ulkan inshootlar qurish, odamlarni murosaga keltirishda qiyinchiliklar tug‘ila boshlagan.	3) Davlat yurt tinchligini saqlash, jamiyatda adolat va tartib-intizomni o‘rnatish ehtiyojiga ko‘ra tug‘ilgan.

2-topshiriq. Vaqt o‘tishi bilan odamlarning turar yerlari o‘zgargan: qadimgi g‘orlar va chaylalar o‘rniga shinam va mustahkam uylar qurilgan. Ammo uylarning asosiy vazifasi o‘zgarmagan. Turar yerlarning qadim zamonlardan buyon saqlanib kelayotgan asosiy vazifasi nima?

3-topshiriq. “Unumli yarim oy” (Nil, Dajla va Furot daryolarining bo‘ylari) hamda Turonda yashagan qadimgi odamlar mohir dehqonlar bo‘lganlar. Nima uchun ular o‘z qishloqlarini yirik daryolar bo‘yida barpo etganlar?

4-topshiriq. Mahmud Koshg‘ariy bobomiz o‘z kitobida dunyoning ilk rangli xaritasini chizgan. Uning markaziga qaysi xalqlar yashaydigan o‘lkalar joylashtirilgan?

A) Uzoq Xitoy davlati hududini

B) Bizning ajdodlarimiz – turkiy xalqlar yashaydigan o‘lkalarni

D) Amerika qit’asini

E) Qadimgi Misr va Nil daryosi bo‘ylarini

5-topshiriq. Agar siz bugun Turkiya, Qozog‘iston yoki Qirg‘izistonga borib qolsangiz, u yerdagi odamlarning gaplarini qisman tushunishingiz mumkin. Buning sababi nimada?

A) Bu tillarning barchasi ingliz tili oilasiga kirgani uchun

B) Biz so‘zlashadigan o‘zbek tili ham, ularning tillari ham bir turkiy tillar oilasiga kirgani uchun

D) Barcha odamlar faqat bitta kitobni o‘qiganlari uchun

E) Qadimda u yerlarda faqat o‘zbeklar yashaganlari uchun

6-topshiriq. Darslikning ilk betlarida shunday yozilgan: *“Mustaqilligimizni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir”.* Siz o‘z Vataningizni yanada kuchli va rivojlangan yurtga aylantirish uchun hozirdan boshlab qanday harakat qilmoqchisiz? Javobingizni 3 ta gap bilan yozing.